| AKSIZ SOLIG'INING BUDJET DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA MAZKUR SOLIQNI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINING TAHLILI | 769 |
| Nazarova Rushana Ravshan qizi | |
| MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... | 774 |
| Ibodullayev Dilshod Ibragimovich | |
| HUDDIY INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASHNING OPTIMIZATSIYALANGAN METODOLOGIYASI: ASOSIY KO'RSATKICHLARNING KO'P O'LCHOVLI TAHLILI..... | 781 |
| Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi | |
| ЭКОНОМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ГЕРМАНИИ | 788 |
| Артикова Шохиди Ильясовна | |
| "YASHIL" TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA KORXONALAR MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI | 793 |
| Rasulova Nigora Nematovna | |
| MINTAQA IQTISODIYOTIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH YO'NALISHLARI | 799 |
| Sultanova Aziza Baxtiyar qizi | |



| | |
|--|-----|
| KORXONALARDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 802 |
| <i>Aminova Shaxnoza Aziz qizi</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI..... | 807 |
| <i>Nazirova Sayyora Baxtiyorovna, Qulmamatova Barno Omonovna, Sharifova Nargiza Djurayevna</i> | |
| MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKKA TA'SIRI | 811 |
| <i>Murodova E'zoza Maqsud qizi</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: ISHLASH MEKANIZMI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH | 816 |
| <i>Umarov Bobur Murtazoyevich</i> | |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH | 822 |
| <i>Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich</i> | |
| AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI | 829 |
| <i>Boltayev Nurali Shiramatovich</i> | |
| MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASI XIZMATLAR SIFATI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KO'RSATKICHLAR | 838 |
| <i>Suyunov R. G'.</i> | |
| ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ | 844 |
| <i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i> | |
| BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI | 849 |
| <i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i> | |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI | 853 |
| <i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i> | |
| SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI | 860 |
| <i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i> | |
| ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ..... | 867 |
| <i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i> | |
| АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ | 871 |
| <i>Некова Фатима Борисовна</i> | |
| MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) | 876 |
| <i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i> | |
| ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH | 882 |
| <i>Kayumov Z.O.</i> | |
| O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI..... | 887 |
| <i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i> | |
| МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... | 892 |
| <i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i> | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI..... | 897 |
| <i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i> | |
| НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ..... | 901 |
| <i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i> | |



| | |
|--|-----|
| ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI | 906 |
| Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi | |
| DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 911 |
| Uktamov Sarvar Atxam o'g'li | |



DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Uktamov Sarvar Atxam o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti,

tayanch doktoranti

e-mail: uktamovsa@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0298-9475>

Annotatsiya. Mazkur maqolada temir yo'l transporti korxonalarida marketing strategiyasining iqtisodiy mazmuni, uning boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan farqlovchi jihatlari hamda marketing tadqiqotlarining boshqaruvdagi roli tahlil qilingan. Temir yo'l tizimining infratuzilmaviy murakkabligi, uzoq muddatli investitsion xususiyati, davlat tomonidan tartibga solinishi, yo'lovchi va yuk segmentlarining o'ziga xos talablari, shuningdek, xizmat sifati va raqamli xizmatlarning ustuvorligi marketing strategiyasini shakllantirishdagi asosiy omillar sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti, marketing strategiyasi, marketing tadqiqotlari, transport xizmatlari, yo'lovchi talabi, yuk tashish bozori, xizmat sifati, tarif siyosati, raqobat muhiti, raqamli xizmatlar.

Abstract. This article analyzes the economic essence of marketing strategy in railway transport enterprises, its distinguishing features compared to other service sectors, and the role of marketing research in management. The infrastructural complexity of the railway system, its long-term investment nature, state regulation, the specific demands of passenger and freight segments, as well as the priority of service quality and digital services are highlighted as the main factors in shaping marketing strategy.

Key words: railway transport, marketing strategy, marketing research, transport services, passenger demand, freight market, service quality, tariff policy, competitive environment, digital services.

Аннотация. В данной статье проанализированы экономическое содержание маркетинговой стратегии на предприятиях железнодорожного транспорта, её отличительные особенности по сравнению с другими сферами услуг, а также роль маркетинговых исследований в системе управления. В качестве ключевых факторов формирования маркетинговой стратегии рассмотрены инфраструктурная сложность железнодорожной системы, её долгосрочный инвестиционный характер, государственное регулирование, специфические требования пассажирского и грузового сегментов, а также приоритетность качества услуг и цифровых сервисов.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, маркетинговая стратегия, маркетинговые исследования, транспортные услуги, пассажирский спрос, рынок грузоперевозок, качество услуг, тарифная политика, конкурентная среда, цифровые сервисы.

KIRISH

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqobat bosimining ortishi hamda iste'molchilar ehtiyojlari va talablarining murakkablashuvi sharoitida marketing tadqiqotlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida strategik boshqaruvning ajralmas tarkibiy elementiga aylanmoqda. Hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlashi, iste'molchilar talabiga moslashuvi hamda raqobat ustunligini shakllantirishi ko'p jihatdan marketing axborotlarining to'liqligi, ishonchiligi va tahlilii chuqurligiga bog'liqdir. Shu bilan birga, marketing tadqiqotlaridan foydalanish mexanizmi barcha tarmoqlarda bir xil ko'rinishda namoyon bo'lmaydi. Chunki har bir soha o'zining iqtisodiy tabiati, texnologik bazasi, tashkiliy boshqaruv tizimi hamda institutsional muhitidan kelib chiqib, marketing faoliyatiga o'ziga xos mazmun yuklaydi.

Ana shunday tarmoqlardan biri temir yo'l transporti sohasi bo'lib, u marketing tadqiqotlari nuqtayi nazaridan alohida yondashuvni talab qiladigan murakkab infratuzilmaviy tizim sifatida tavsiflanadi. Temir yo'l transportining o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi xo'jalik subyekti, aholining transportga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondiruvchi tizim hamda milliy va hududiy xavfsizlik bilan bog'liq



strategik ahamiyatga ega infratuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarini tashkil etish va ulardan amaliy foydalanish boshqa tarmoq korxonalaridan mazmunan va funksional jihatdan farqlanadi hamda ushbu jihatlarni chuqur ilmiy o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining birinchi muhim o'ziga xos xususiyati ularning vaqt ko'lamini va istiqbol ufqining nihoyatda kengligi bilan belgilanadi. An'anaviy xizmat ko'rsatish sohalari, xususan, chakana savdo, umumiy servis yoki qisqa aylanishga ega bo'lgan bozor segmentlarida marketing tadqiqotlari asosan qisqa va o'rta muddatli boshqaruv ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bunda oylik, choraklik yoki yillik davr kesimidagi tahlillar asosida tezkor marketing qarorlari qabul qilinadi. Temir yo'l transporti tizimida esa bunday yondashuv yetarli darajada samara bermaydi, chunki mazkur tarmoqning asosiy faoliyati yirik kapital sig'imli infratuzilmaviy loyihalar bilan uzviy bog'liqdir. Yangi temir yo'l liniyalarini qurish, stansiyalarni rekonstruksiya qilish, lokomotiv va vagon parkini modernizatsiya qilish, logistika terminallarini rivojlantirish kabi yo'nalishlardagi qarorlar joriy talab ko'rsatkichlaridan kelib chiqib emas, balki uzoq muddatli istiqboldagi ehtiyojlar va bozor rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Aksariyat hollarda bunday investitsion qarorlar kamida 15–25 yillik prognozlarga tayangan holda ishlab chiqilishi zarur bo'ladi [2].

Mazkur holat temir yo'l marketing tadqiqotlari oldiga ancha murakkab metodologik vazifalarni qo'yadi. Xususan, bu yerda joriy holatning oddiy tavsifi bilan cheklanib qolish mumkin emas. Marketing tahlilchilari bir vaqtning o'zida uzoq muddatli demografik o'zgarishlar, urbanizatsiya ko'lamini, hududlar kesimida iqtisodiy faollikning joylashuvi, sanoat markazlarining rivojlanish yo'nalishlari, aholi migratsiyasi, bandlik markazlari dinamikasi hamda muqobil transport turlarining kelajakdagi raqobat salohiyatini ham baholashi lozim bo'ladi. Masalan, Toshkent viloyatida yoki boshqa yirik aglomeratsion hududlarda yangi commuter poyezd yo'nalishini joriy etish zaruriyatini asoslashda faqat bugungi yo'lovchi oqimlari emas, balki 2040–2050-yillarda aholi joylashuvining hududiy transformatsiyasi, yangi turar joy massivlarining shakllanishi, mehnat bozorining hududiy siljishi va alternativ transport tarmoqlarining kengayish ehtimoli ham hisobga olinishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, temir yo'l transportida marketing tadqiqotlari iqtisodiy prognozlash, geodemografik tahlil, transport oqimlarini modellashtirish va hududiy rivojlanish tendensiyalarini baholash kabi ko'p fanli ilmiy yondashuvni o'zida mujassamlashtiradi [3]. Bu esa ushbu tarmoqdagi marketing tadqiqotlarining boshqa sohalarga nisbatan murakkabroq va strategikroq xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining ikkinchi muhim xususiyati davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining kuchli ta'siri bilan ifodalanadi. Jahon amaliyotida temir yo'l transporti ko'pincha oddiy tijorat subyekti sifatida emas, balki mamlakatning iqtisodiy birligi, hududiy integratsiyasi, ijtimoiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlovchi strategik tarmoq sifatida qaraladi. Shu sababli ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalar, odatda, to'liq bozor erkinligi sharoitida emas, balki davlat nazorati, tartibga solish va ijtimoiy majburiyatlar tizimi doirasida faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasida ham O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining tarif siyosati to'liq mustaqil emas, chunki yo'lovchi tashishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tariflarni belgilash va tasdiqlash tartibi vakolatli davlat organlari nazorati ostida amalga oshiriladi [4]. Bu esa marketing tadqiqotlarida aniqlanadigan ayrim natijalarning, ayniqsa narx elastikligi bilan bog'liq xulosalarning amaliy qo'llanish doirasini nisbatan cheklaydi.

Shu sababli temir yo'l transportida marketing tadqiqotlari boshqa ko'plab tarmoqlardan farqli ravishda narx omilidan ko'ra xizmat sifati, yo'lovchi va yuk jo'natuvchilar uchun yaratiladigan qulayliklar, harakat jadvaliga rioya etish darajasi, punktuallik, xavfsizlik, transport tugunlarining funktsionalligi, vokzal infratuzilmasi, raqamli axborot xizmatlari hamda qo'shimcha servislarning samaradorligini o'rganishga ko'proq yo'naltiriladi. Boshqacha qilib aytganda, agar tijorat bozorlarida marketing tadqiqotlarining asosiy vazifasi ko'pincha narx va talab o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat bo'lsa, temir yo'l sohasida marketing tahlili xizmatning iste'molchisi uchun foydalilik darajasini va transport xizmatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashga ko'proq qaratiladi. Bundan tashqari, temir yo'l korxonalarida ko'pincha rentabelligi past yoki zarar bilan ishlovchi, biroq hududiy bog'liqlikni ta'minlash va aholining ijtimoiy ehtiyojini qondirish nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan yo'nalishlarni saqlab qolishga majbur bo'ladi. Shu bois marketing qarorlari faqat moliyaviy natijadorlik mezonlariga tayangan holda emas, balki ijtimoiy ahamiyat, hududiy rivojlanish, transport ommabopligi va umumiy xalq xo'jaligi samaradorligi kabi ko'rsatkichlar majmuasi asosida qabul qilinishi lozim [5]. Bu jihat temir yo'l marketingini boshqa xizmat ko'rsatish sohalariidan ajratib turuvchi fundamental omillardan biri hisoblanadi.

Temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining uchinchi o'ziga xos xususiyati tadqiqot yo'nalishlari va axborot oqimlarining ko'p qatlamli hamda integrallashgan tuzilishga ega ekanligida namoyon bo'ladi. An'anaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida marketing tadqiqotlari ko'pincha iste'molchi xulq-atvori, bozor segmentatsiyasi, raqobatchilar faoliyati va reklama vositalarining samaradorligini tahlil qilish bilan chegaralanadi. Temir yo'l



transporti korxonalarida esa marketing tadqiqotining predmeti ancha keng bo'lib, unda bozor va raqobat muhitini o'rganish, yo'lovchi va yuk oqimlari dinamikasini tahlil qilish, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, xizmat sifati monitoringini olib borish, tarif va talab o'rtasidagi munosabatlarni baholash, logistika zanjirlarining samaradorligini o'rganish, raqamli marketing vositalarini joriy etish, Big Data asosida real vaqt rejimidagi axborotlardan foydalanish, strategik rejalashtirish va innovatsion rivojlanish masalalarini yagona tizim doirasida ko'rib chiqish talab etiladi [6]. Mazkur yo'nalishlarning har biri nisbatan mustaqil tahlil obyektiga ega bo'lsa-da, ular amalda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Masalan, xizmat sifati monitoringi natijalari iste'molchilar xulq-atvorini baholashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, bu ma'lumotlar esa o'z navbatida bozor segmentatsiyasini takomillashtirish va talab prognozlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Yoki raqamli platformalar orqali yig'ilgan operativ ma'lumotlar transport xizmatlaridan foydalanish intensivligini, mijozlarning xatti-harakatlarini va ularning ehtiyojlaridagi o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi, natijada strategik rejalashtirish jarayonida ancha asosli qarorlar qabul qilinadi. Shu jihatdan, temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlari oddiy axborot yig'ish vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, investitsion ustuvorliklarni belgilash, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi ko'p pog'onali analitik tizim sifatida shakllanadi [7]. Bu holat ushbu tarmoqda marketingning funksional doirasi ancha keng ekanligini va uni faqat bozor bilan bog'liq operativ tadbirlar majmui sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda temir yo'l transporti korxonalarida marketing strategiyasining o'ziga xos jihatlari aniqlash uchun tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, transport va marketing sohasiga oid statistik ma'lumotlar hamda xorijiy tajribalar tahlil qilindi.

Shuningdek, taqqoslash, iqtisodiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, segmentatsiya va prognozlash usullaridan foydalanildi. Temir yo'l transportining yo'lovchi va yuk tashish segmentlari alohida ko'rib chiqildi hamda marketing strategiyasiga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo'l transportida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mazkur tarmoqning infratuzilmaviy murakkabligi, uzoq muddatli investitsion xarakteri, davlat tomonidan tartibga solinadigan boshqaruv muhiti hamda ko'p qatlamli axborot va tahlil tizimiga tayangan holda faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Shu sababli temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ulardan foydalanish va natijalarini boshqaruv amaliyotiga joriy etish boshqa tarmoqlardagiga nisbatan ancha kompleks, strategik va tizimli yondashuvni talab qiladi. Mazkur jihatlar temir yo'l transportida marketing tadqiqotlarining nazariy-metodologik asoslarini alohida o'rganish zarurligini asoslaydi hamda ushbu yo'nalishda konseptual sxemalar, tahliliy modellar va innovatsion marketing mexanizmlarini ishlab chiqishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining navbatdagi muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri tarmoq effekti va o'zaro bog'liqlik omillarining tadqiqot metodologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Temir yo'l transporti alohida elementlar yig'indisidan iborat oddiy tizim emas, balki o'zaro chambarchas tutashgan va bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi yaxlit infratuzilmaviy tarmoq hisoblanadi. Shu sababli tarmoqning ma'lum bir bo'g'inida yuz beradigan o'zgarish boshqa segmentlar faoliyatiga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Masalan, yangi stansiyaning ishga tushirilishi, muayyan yo'nalishda harakat intensivligining oshirilishi, qatnov tezligining ko'tarilishi yoki tarif siyosatidagi o'zgarishlar faqat alohida yo'nalish ko'rsatkichlariga ta'sir etib qolmay, balki butun transport tarmog'ining funksional muvozanatiga, yo'lovchi va yuk oqimlarining taqsimlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holat marketing tadqiqotlarini an'anaviy chiziqli yondashuvlar asosida emas, balki tizim dinamikasini hisobga oluvchi, ko'p omilli va integratsiyalashgan modellashtirish usullari asosida tashkil etishni talab qiladi [8].

Bunday sharoitda marketing tadqiqotchilari alohida yo'nalish yoki xizmat turini mustaqil obyekt sifatida o'rganish bilan cheklanib qolmasligi, balki uning butun tarmoqdagi funksional rolini va boshqa yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorlik darajasini ham baholashi zarur bo'ladi. Masalan, Toshkent–Andijon yo'nalishida chipta narxining 15 foizga pasaytirilishi faqat mazkur yo'nalishdagi yo'lovchi talabining ortishiga olib kelmaydi, balki unga tutash hududiy yo'nalishlarda yo'lovchi oqimining qayta taqsimlanishiga, ulovchi stansiyalardagi tranzit faolligining o'zgarishiga va hatto parallel avtomobil transporti yo'nalishlarining yuklanish darajasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, bunday sharoitda talabni baholash faqat bitta yo'nalish kesimidagi oddiy tahlil bilan chegaralanmasligi lozim. Aksincha, kross-elastiklik, o'zaro substitutsiya va tarmoq bo'ylab yuz beruvchi multiplikativ ta'sirlarni hisobga oluvchi yagona integratsiyalashgan talab modelidan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bu esa marketing tadqiqotlarini transport iqtisodiyoti, operatsion tadqiqotlar va matematik modellashtirish yondashuvlari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi [9].



Mazkur jihat temir yo'l marketing tadqiqotlarining metodologik chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi. Chunki odatiy marketing tahlilida ko'pincha alohida mahsulot, xizmat yoki iste'molchi segmenti doirasidagi xatti-harakatlar o'rganilsa, temir yo'l tizimida marketing qarorlarining samaradorligi ko'p hollarda butun tarmoq bo'yicha yuzaga keladigan natijalar orqali baholanadi. Natijada marketing tadqiqoti bu yerda nafaqat talab va iste'molchi xulq-atvorini aniqlash vositasi, balki tarmoqning ichki muvozanatini, yo'nalishlararo bog'liqligini va transport xizmatlari tizimidagi funksional o'zgarishlarni oldindan baholashga xizmat qiluvchi strategik analitik instrument sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining metodologik bazasi kompleks va fanlararo xarakterga ega bo'lishi, unda tizimli fikrlash tamoyillari ustuvor o'rin egallashi lozim [9].

Temir yo'l korxonalarida marketing tadqiqotlarining beshinchi muhim o'ziga xos xususiyati iste'molchi segmentlarining ikki asosiy yo'nalishda shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Ko'pgina xizmat ko'rsatish tarmoqlarida marketing tadqiqotlari, asosan, yagona tipdagi iste'molchilar guruhi bilan ishlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Temir yo'l transportida esa marketing faoliyatining obyekt sifat jihatidan farqlanuvchi ikki yirik segmentdan iborat bo'lib, ular yo'lovchilar va yuk jo'natuvchilardan tashkil topadi [10]. Mazkur segmentlarning ehtiyojlari, manfaatlari, qaror qabul qilish mexanizmlari, xizmat sifatiga nisbatan talablari va marketing kommunikatsiyasiga munosabati bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu bois temir yo'l korxonasida marketing tadqiqotlari yagona universal model asosida emas, balki segmentlarning funksional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda differensial yondashuv asosida olib borilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo'l transporti korxonalarida marketing strategiyasining mohiyati ushbu tarmoqning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Temir yo'l xizmatlarining uzoq muddatli investitsion xarakteri, infratuzilmaviy murakkabligi, davlat tomonidan tartibga solinishi, xizmat sifati va xavfsizlik omillarining ustuvorligi, shuningdek, yo'lovchi va yuk segmentlarining farqlanuvchi ehtiyojlari marketing strategiyasiga alohida mazmun yuklaydi.

Shu bois temir yo'l transporti korxonalarida marketing strategiyasi faqat xizmatlarni targ'ib qilish vositasi emas, balki talabni prognozlash, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, xizmatlar sifatini takomillashtirish, infratuzilmaviy rivojlanishni asoslash va boshqaruv qarorlarini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv temir yo'l transporti korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, temir yo'l korxonalarida marketing strategiyasini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar va zamonaviy analitik vositalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Big Data, sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida yo'lovchi hamda yuk oqimlarini tahlil qilish, talabni prognozlash va xizmatlarni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu esa marketing qarorlarining aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, marketing strategiyasini ishlab chiqishda hududiy rivojlanish istiqbollari, demografik o'zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari hamda alternativ transport turlarining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish lozim. Ayniqsa, xizmat sifati, punktuallik, xavfsizlik, tarif siyosati va qo'shimcha servislar bo'yicha iste'molchilar fikrini muntazam o'rganib borish temir yo'l transporti korxonalarining bozordagi mavqeini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. 15th ed. – New York: Pearson Education, 2016. – 816 p.
2. Flyvbjerg B., Skamris Holm M. K., Buhl S. L. How Common and How Large Are Cost Overruns in Transport Infrastructure Projects? // Transport Reviews. – 2003. – Vol. 23. – № 1. – P. 71–88.
3. Manyika J., Chui M. et al. Big Data: The Next Frontier for Innovation, Competition and Productivity. – New York: McKinsey Global Institute, 2021. – 156 p.
4. O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 30-dekabr, O'RB-597-son. – Toshkent, 2019.
5. Mirzoev O., Yusupov A., Hasanov B. O'zbekistonda transport marketingi: holati va istiqbollari. – Toshkent: TDTU nashriyoti, 2020. – 243 b.
6. International Union of Railways. Railway Statistics Synopsis. – Paris: UIC, 2023. – 86 p.
7. Tseng C. T., Wu C. L., Yeh C. H. Analysing Passenger Demand for High-Speed Rail Services // Journal of Transport Geography. – 2019. – Vol. 74. – P. 218–228.
8. de Dios Ortúzar J., Willumsen L. G. Modelling Transport. 4th ed. – New York: Wiley, 2011. – 606 p.
9. Christopher Lovelock, Jochen Wirtz. Services Marketing: People, Technology, Strategy. 8th ed. – London: Pearson, 2016. – 488 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
